



## THE IMPORTANCE OF GAME ACTIVITY IN THE DEVELOPMENT OF PRESCHOOL CHILDREN

Ubaydullayeva Ra'no Furqat qizi<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Kagan Pedagogical College, special subject teacher, Bukhara, Uzbekistan

<https://doi.org/10.5281/zenodo.4985519>

### ARTICLE INFO

Received: 05<sup>th</sup> June 2021

Accepted: 10<sup>th</sup> June 2021

Online: 15<sup>th</sup> June 2021

### KEY WORDS

Game, K.D. Ushinsky, rule game, creative game, talent, plot-role games, skill, construction and creation games, didactic, action games, imagination.

### ABSTRACT

*This article describes the role and importance of games in the development of preschool children in the educational process, the types of games. Information about the games used for each age group in preschool education.*

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR RIVOJLANISHIDA O'YIN FAOLIYATINING AHAMIYATI

Ubaydullayeva Ra'no Furqat qizi<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Kogon pedagogika kolleji maxsus fan o'qituvchisi, Buxoro, O'zbekiston

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 05-iyun 2021

Ma'qullandi: 10-iyun 2021

Chop etildi: 15-iyun 2021

### KALIT SO'ZLAR

O'yin, K.D.Ushinsky, qoidalı o'yin, ijodiy o'yin, iste'dod, syujetli-rolli o'yinlar, qobiliyat, qurish va yasashga doir o'yinlar, didaktik, harakatli o'yinlar, hayol.

O'yin bolalar faoliyatining asosiy turi. Bola o'yin orqali materiallarning ko'rinishi,

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ta'lim jarayonida o'yinlarning maktabgacha yoshdagи bolalar rivojlanishidagi o'rni va ahmiyati, o'yin turlari yoritilgan. Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi har bir yosh guruhlar uchun qo'llaniladigan o'yinlar haqida ma'lumotlar berilgan

rangi, tuzilishi turli o'simlik va hayvonot olamidagi o'zgarishlarni anglaydilar.



O`yin- bu bolalar uchun o`qish, mehnat qilish va tarbiya vositalaridir. Biroq, darsning assosiy qismini o`yin darsiga aylantirib qo`ymaslik lozim. Bola hayotining asosiy turi o`yindir. "Bola uchun o`yin voqelik"- deb yozgan edi K.D.Ushinskiy, binobarin, tevarak atrofdagi voqelikdir. U bolaga xususan tushunarli bo`lgani uchun qiziqdir, o`yin bolaga shuning uchun tushunarligi, unda qisman bolaning o`zi yaratgan narsa bor.Bolalarning o`yin faoliyati maktabgacha yoshda paydo bo`lib, o`z taraqqiyotida oddiy taqlid qilishdan murakkab rolli o`yinga qadar bo`lgan yo`lni bosib o`tadi, bu o`yin dastlab kishilarning predmetlar bilan bog`liq faoliyatini, so`ngra o`ziga xos xususiyatlarni aks ettiradi. O`yin o`sib borayotgan bola organizmining zaruriy ehtiyojidir va u orqali bolalarda tashkilotchilik ko`nikmalari tarbiyalanadi. Ammo o`yin har qanday sharoitda ham o`yindir. Shunday o`yinlar ham borki, ular bolalarga mustaqillikni, oddiylikni, bir-biriga yordam berish hissini tarbiyalaydi. O`yinga rahbarlik qilish va bolalarning hatti-harakatlarini doimo kuzatib turishi kerak. Chunki bolalar o`yin jarayonida har tomonlama tarbiyalanadilar.O`yin maktabgacha ta`lim yoshidagi bolalar faoliyatining asosiy shakli sanaladi.U orqali bola shaxs sifatida shakllanadi. O`yin bolaning kelajakdagi o`quv, mehnat faoliyati, kishilar munosabatining qay darajada shakllanishini belgilab beradi. MTTning ta`lim tarbiya ishida, bolalarni aqliy, axloqiy, mehnat va estetik jihatdan tarbiyalashda katta o`rin tutadi.O`yinning maktabgacha ta`lim yoshidagi bolalar hayotida tutgan o`rni va ahamiyatini quyidagicha ifodalash mumkin:

1.O`yin bolalarning mustaqil faoliyati bo`lib, unda bolaning ruxiyati namoyon bo`ladi.Bola hayotining bir yoshidan boshlab unga o`rab turgan tevarak atrofni bilishga ehtiyoj xosdir.Bolalar o`yinlari o`zining barcha xilma-xilligini bilan unga yangi narsani bilish, o`yin mazmunida aks etgan jihatga o`z munosabatini bildirish imkonini beradi.

2.O`yin maktabgacha ta`lim yoshidagi bolalar hayotini tashkil etish etish shaklidir.Ilmiy asoslangan o`yinlar MTTda bolalar hayoti va faoliyatini tashkil etish shakli sifatida alohida ahamiyat kasb etadi

3.O`yin bolalarni har tomonlama tarbiyalash vositalaridan biridir.O`yin orqali bolalar kattalarning mehnat tajribasini, bilim, ko`nikma va malakalari, harakat usullarini egallab oladi.O`yinda bolaning o`z tengqurlari va kattalar bilan bo`ladigan munosabat usullari shakllanadi, his va didlar tarbiyalanadi.

4.O`yin bolalarga ta`lim-tarbiya berishning metod va usulidir.O`yin jarayonida bolalarning bilimlari va tasavvurlari boyib, chuqurlashib boradi.

Maktabgacha yoshdagagi bolalarning barcha o`yinlari o`zining mazmuni, xususiyati va tashkil etilishiga ko`ra ikki katta turkumga bo`linadi:

1. Ijodiy o`yinlar.
2. Qoidali o`yinlar.

Ijodiy o`yinlarni bolalarning o`zlari o`ylab topadilar. Unda oldindan belgilab qo`yilgan qoidalar bo`lmaydi. Qoidalar bolalar tomonidan o`yin jarayonida o`ylab topiladi.

Qoidali o`yinlarning mazmuni va qoidasi kattalar tomonidan belgilanadi.



O'yin davomida bu qoidalarga amal qilinishi shart.

Ijodiy o'yinlarga:

- syujetli-rolli o'yinlar;
- sahnalashtirilgan o'yinlar;

- qurish va yasashga doir o'yinlar kiradi.

Ijodiy o'yinlarda bolalarning tevarak-atrofdan olgan taassurotlari aks etadi.

Bunday o'yinlar mustaqil o'yin bo'lib, uning mazmunini ishtirokchilarning o'zları o'ylab topadilar. Bu o'yinda bolaning erkinligi, mustaqilligi, tashkilotchiligi va ijodkorlik qobiliyatlari to'la namoyon bo'ladi. O'yinda hayotiy taassurotlar aynan aks ettirilmaydi, balki bolalar ongida qayta ishlab, o'yinga tatbiq etiladi. Bu bolaning o'yin g'oyasini yaratishida, uning

mazmunini tuzib, tasvirlovchi vositalarni tanlashida namoyon bo'ladi. Bolaning tevarak-atrofidagi hayotdan - tengdoshlari, kattalar faoliyatidan olgan taassurotlari ijodiy o'yinlarda qayta ishlanadi, to'ldiriladi, sifat jihatidan o'zgartiriladi. Bolalarning bunday o'yinlari tevarak-atrofdagi borliqni bilishning amaliy shaklidir.

Syujetli-rolli o'yinlar o'z xususiyatiga ko'ra aks ettiruvchi faoliyatdir. Rolli o'yinlar bolalarning kuzatuvchanligi, qiziquvchanligini oshirib, bilish doirasini rivojlantiradi. Bola o'z o'yinida borliqni aks ettirib olgan rolining mazmuni bilan bog'liq bo'lgan u yoki bu hissiyotni boshdan kechiradi.



"Bolalar bog`chasi", "Uy quramiz" kabi o'yinlar bolalarda do'stlik, o'rtoqlik, burch hissi, jamoatchilik kabi sifatlarni

tarbiyalaydi. Rolli o'yinlarda har bir bola o'zi olgan rolini bajaradi. Masalan, quruvchi, haydovchi, tarbiyachi, enaga, o'qituvchi kabilalar. Syujetli-rolli o'yinlarda



bolalar avval katta bo'limgan guruhlarda 2-3 kishidan bo'lib o'ynaydi. Katta va tayyorlov guruhlarida esa ko'p sonli jamoalarga birlashadi. O'yinda o'rtoqlik munosabatlari shakllanadi. Uch yoshda bolaning o'yinlari yangicha tus oladi. Bola o'z o'yinlarida sekin-asta murakkab bo'limgan syujetli o'yinlarni o'ynay boshlaydi. Uch yoshning oxiriga kelib, bola rol tanlay boshlaydi ("Men oyisiman", "Men shifokorman" tarzida). Bolalar to'rt yoshga yetganda, syujetli rollar ancha rivojlanadi. Bu yoshdagi bolalar o'z o'yinlarida oila, bog'cha, avtobusdagi voqealarni aks ettiradi. Bola besh yoshga qadam qo'yganda, undagi kuzatuvchanlik yanada ortadi, tafakkuri rivojlanib, bilish doirasi kengayadi. Shu sababli o'yin mazmuni murakkablashib boradi. Xayolning rivojlanishi orqali ertak va hikoya mazmuni bo'yicha o'yinlar o'ynaydi. Katta bog'cha yoshida ijodiy o'yinlar juda yaxshi rivojlanadi. Bu o'yinlarda bolalar o'zlari eshitgan, ko'rgan voqealar, hikoyalar, kitob va boshqa manbalardan olgan bilim, malaka, his-hayajonlarini to'liq qo'llay boshlaydilar. Uzoq muddat davom etadigan o'yinlar maktabgacha yoshdagи bolalar o'yinlarining yuqori bosqichidir. Katta guruh yoshidagi bolalar o'yinlariga to'g'ri rahbarlik qilinsa, ularning mustahkam jamoasi yuzaga keladi. Rolli o'yinlarda bolalar har xil vositalardan foydalananadilar.. O'yin davomida bola shaxs sifatida shakllanib boradi. Taniqli pedagog olimlarning olib borgan tadqiqotlariga ko'ra, bolalar o'yinlariga har tomonlama to'g'ri rahbarlik qilish orqali ularga o'yinning mazmuni, tashkil etilishi, tuzilishi bolalar o'rtasidagi axloqiy munosabatlari, o'yinlarning rivojlanib, takomillashib borishiga ta'sirini ko'rish mumkin.

Bolalar o'yinlarining ikkinchi turkumi qoidali o'yinlardir. Bunga quyidagilar kiradi:

- didaktik;
- harakatli;
- musiqaviy;
- ermak o'yinlar. Qoidali o'yinlar barcha o'yinlar kabi amaliy faoliyat hisoblanadi. Lekin bolalar belgilangan qoidaga amal qilishlari talab etiladi. Belgilangan qoidalar kichkintoylarda mas'uliyatli bo'lishni tarbiyalaydi. Bola jamoada hamjihat ishslash, atrofdagilar bilan murosada bo'lishga o'rganib boradi. Har bir qoidali o'yinlar o'z g'oyasi va mazmuniga egadir. O'yin davomida qoidalarning to'g'ri bajarilishi "to'g'ri" yoki "noto'g'ri", "o'yin qoidasi buzildi", degan baholar bilan belgilanadi. Bolalar o'yin vaqtida o'z-o'zini nazorat qilishni o'rganib boradi. Albatta, har bir o'yin so'ngida natija tarbiyachi tomonidan muhokama qilinishi, unda qo'yilgan maqsad, qoida va erishilgan natijalarga e'tibor qaratilishi kerak. O'yin so'ngida qatnashchilarni rag'batlantirish, faol ishtirokchilarni maqtash - kelgusi o'yinlarning samarali o'tishini ta'minlaydi. Yuqorida aytib o'tilgan barcha turdag'i qoidali o'yinlar mazmuniga ko'ra o'z qoidalariga ega bo'ladi. Ular quyidagi xususiyatlarga ega:
  - o'yin harakatlari orqali amalgalashiriladigan o'yin vazifasining mavjudligi;
  - o'ynovchilarining harakat va munosabatlari qoidalar bilan yo'lga solib turilishi;
  - o'yinda qoida va tayyor mazmunning mavjudligi;
  - o'yinning ta'limg-tarbiyaviy mazmuni o'yin harakatlari vaqoidalarida mujassam bo'lib, ular bolalar uchun mustaqil vazifa sifatida namoyon bo'lmaydi.

**Xulosa :** O'yin maktabgacha ta'limg-tarbiyaviy mazmuni o'yin harakatlari vaqoidalarida mujassam bo'lib, ular bolalar uchun mustaqil vazifa sifatida namoyon bo'lmaydi.



shakllanib boradi.O'yinlar bolalarning yosh, fiziologik va jismoniy imkoniyatlariga, qiziqishlariga, vaqtiga va o'rniga ko'ra to'g'ri

tanlanishi kutilgan natijalarni qo'lga kiritishga imkoniyat yaratadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. 1.Sh.Sodiqova "Maktabgacha pedagogika "-Toshkent -2017
2. 2.B. R. Jurayeva , H.M. Tojiboyeva, G.M.Nazirova "Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ta'lim tarbiya berishning zamonaviy tendensiyalari T.: "Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti. 2015 yil.